

5/2025,
sentyabr-
oktyabr
(№ 00079)



DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA TASHKIL ETILGAN TARMOQLAR FAOLIYATIDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

Qodirov Jasurbek Sharofitdinovich

“O‘zbekiston Temir yo‘llari” AJ, Moliya departamenti boshlig‘i i.f.f.d. (PhD).

Email: Bek-maf@mail.ru

ORCID: 0009-0003-1710-7648

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss5/716

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmining rivojlanish holati, uning iqtisodiyotdagi o‘rni hamda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda DXShning huquqiy asoslari, iqtisodiy samaradorlik omillari, risklarni taqsimlash va monitoring tizimining dolzarb masalalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Turkiya kabi mamlakatlarning DXSh tajribalari O‘zbekiston amaliyoti bilan qiyoslab o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, DXShni yanada rivojlantirish uchun barqaror huquqiy muhit, mustaqil monitoring tizimi va xususiy sektor ishtirokini rag‘batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish muhim omil sifatida qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sheriklik (DXSh), investitsiya, infratuzilma, risklarni boshqarish, monitoring, iqtisodiy samaradorlik, huquqiy asos, xalqaro tajriba, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, barqaror rivojlanish.

АНАЛИЗ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОТРАСЛЕЙ, ОРГАНИЗОВАННЫХ НА ОСНОВЕ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА

Кодиров Джасурбек Шарофитдинович

Начальник финансового департамента АО «Узбекистон темир йуллари», PhD.

Аннотация

В данной научной статье рассматриваются состояние развития механизма государственно-частного партнёрства (ГЧП) в Республике Узбекистан, его роль в экономике, а также анализируются реформы, проводимые на основе передового зарубежного опыта. В исследовании изучены правовые основы ГЧП, факторы экономической эффективности, распределение рисков и актуальные вопросы системы мониторинга. Кроме того, опыт таких стран, как Великобритания, Южная Корея и Турция, сопоставлен с практикой Узбекистана. По результатам исследования отмечено, что для дальнейшего развития ГЧП важным фактором является укрепление устойчивой правовой среды, создание независимой системы мониторинга и усиление механизмов стимулирования участия частного сектора.

Ключевые слова: государственно-частное партнёрство (ГЧП), инвестиции, инфраструктура, управление рисками, мониторинг, экономическая эффективность, правовые основы, международный опыт, стратегия «Узбекистан – 2030», устойчивое развитие.

ANALYSIS OF ADVANCED INTERNATIONAL PRACTICES IN THE ACTIVITIES OF SECTORS ORGANIZED UNDER PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP (PPP)

Qodirov Jasurbek Sharofitdinovich

Head of the Finance Department, “Uzbekistan Railways” JSC, PhD.

Abstract

This scientific article analyzes the development of the public-private partnership (PPP) mechanism in the Republic of Uzbekistan, its role in the national economy, and reforms implemented based on advanced foreign experience. The study examines the legal framework of PPPs, factors of economic efficiency, risk distribution, and key issues related to the monitoring system. Furthermore, the PPP experiences of the United Kingdom, South Korea, and Turkey are compared with Uzbekistan’s current practices. The findings highlight that strengthening a stable legal environment, establishing an independent monitoring system, and enhancing incentives for private sector participation are crucial for the further development of PPPs.

Keywords: public-private partnership (PPP), investment, infrastructure, risk management, monitoring, economic efficiency, legal framework, international experience, “Uzbekistan – 2030” strategy, sustainable development.

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlaridan foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Mazkur mexanizm davlat va xususiy sektor resurslarini birlashtirgan holda ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish, aholiga sifatli xizmatlar ko‘rsatish va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan. Davlat-xususiy sheriklikning huquqiy asoslari “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun (2019-yil 10-may, O‘RQ-537-son)da mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lib, unda sheriklikning asosiy tamoyillari, shartnomaviy munosabatlarning shakllari va moliyaviy risklarni taqsimlash mexanizmlari belgilangan. Jumladan, mazkur qonunning 3-moddasida DXSh “davlat organlari va xususiy sherikning iqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy va boshqa resurslarni birlashtirish orqali amalga oshiriladigan hamkorligi” sifatida ta‘riflanadi[1].

DXShning amaliy joriy etilishi O‘zbekistonda energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va kommunal xizmatlar kabi tarmoqlarda keng ko‘lamli loyihalarni amalga oshirish imkonini bermoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-apreldagi “Davlat-xususiy sheriklik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4660-son qarori ushbu jarayonni jadallashtirishga qaratilgan bo‘lib, unda tarmoqlar kesimida DXSh loyihalarini tanlash, baholash va amalga oshirishning aniq mexanizmlari belgilab berilgan[2].

Ilg‘or xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, DXSh mexanizmlari iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida xizmat qiladi. Masalan, Buyuk Britaniyada “Private Finance Initiative” modeli asosida sog‘liqni saqlash va transport tarmoqlarida samarali loyihalar amalga oshirilgan bo‘lsa[3], Fransiyada DXSh asosida yo‘l va infratuzilma loyihalari davlat byudjetiga ortiqcha yuklamasdan barpo etilgan. World Bankning DXSh hisobotlarida qayd etishicha Janubiy Koreya va Turkiya esa elektr energiyasi ishlab chiqarish hamda aerovokzal infratuzilmasini rivojlantirishda DXShning muvaffaqiyatli tajribalarini taqdim etishgan[4].

Mazkur tajribalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda DXSh mexanizmlaridan foydalanish mamlakat iqtisodiy islohotlari strategiyasiga uyg‘un bo‘lib, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi maqsadlariga erishishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli,

DXSh asosida tashkil etilgan tarmoqlar faoliyatini yanada rivojlantirish va ilg'or xorijiy tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi[5].

Adabiyotlar sharhi

Iqtisodchi olimlarning izlanishlarida va ilmiy adabiyotlarda DXSh sohasida keng o'rganilgan masalalarga doir muhim jihatlarni ochib berilgan. Bulardan risklarni boshqarish, moliyaviy va tashkiliy strukturalar, samaradorlik mezonlari va barqaror rivojlanish kabi turli masalalarda chuqur tadqiqotlar olib borishgan.

Loso Judijanto va boshqalar (2025) “Infratuzilmani rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh): bibliometrik tahlil” nomli maqolasida Scopus ma'lumotlar bazasidan olingan va WOSviewer orqali tahlil qilingan ma'lumotlardan foydalangan holda infratuzilmani rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bo'yicha ilmiy adabiyotlarning keng qamrovli bibliometrik tahlilini amalga oshirishgan. Tadqiqotlarining maqsad bu sohada intellektual tuzilish, tematik evolyutsiya va global hamkorlik modellarini xaritalash bo'lgan. Natijada ular uchta asosiy tadqiqot klasterini ifodalashgan: infratuzilmani boshqarish va iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy va boshqaruv tuzilmasi hamda barqarorlik va xatarlarni baholashni. Shuningdek, hammualliflik va mamlakat darajasidagi tahlillar AQSh, Buyuk Britaniya, Xitoy va boshqa rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning olimlari va muassasalarining ustunligini ta'kidlashgan va global miqyosda o'zaro bog'liq tadqiqot strukturasi aks ettirishgan. Ushbu izlanishda DXSh tadqiqotlarining rivojlanishi va diversifikatsiyasi haqida qimmatli tushunchalarga to'xtalib o'tishgan hamda fanlararo integratsiya, ijtimoiy ta'sir va inklyuziv infratuzilmani shakillantirishga qaratilgan kelajakdagi yo'nalishlarni taklif qilishgan[6].

L.Fu, H.Sun va boshqalar (2023) “2012 va 2021 yillar oralig'ida nashr etilgan davlat-xususiy sheriklik bo'yicha adabiyotlarning tizimli tahlili” nomli izlanishlarida Scopus ma'lumotlar bazasidan 2012 va 2021 yillar oralig'ida taniqli jurnallarda chop etilgan DXSh bo'yicha nashrlarni o'rganib chiqishgan. Ular asosiy maqsadli nashrlarda qo'llanilgan metodologiyalarni, qo'shgan hissalarini va qo'llaniladigan sohalar umumlashtirishgan. Ijtimoiy tarmoq tahlili ko'p tarmoqli nuqtai nazardan DXShdagi beshta asosiy mavzuni umumlashtirish uchun ishlatishgan. Ular risklarni boshqarish, shartnomalarni boshqarish, CFF va CSF, iqtisodiy va moliyaviy masalalar va samaradorlikni boshqarish kabi tushunchalarga to'xtalib o'tishgan. Bundan tashqari, tadqiqot cheklovlari va DXShning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishini ham ko'rib chiqishgan[7].

Mathew Azarian va boshqalar (2023) “Norvegiyaning davlat-xususiy sheriklik (PPP) loyihalarida loyihaga egalik qilish” nomli tadqiqotlarida shartnoma tuzish va xarid qilish usulini tanlash bo'yicha qarorlar davlat-xususiy sheriklikning (DXSh) ikkita asosiy jihati o'rganib chiqishgan. Loyihaga egalik shartnomaviy kelishuvlarning asosiy elementlaridan biri sifatida hisobga olgan holda, ushbu tadqiqot loyihaga egalik qilish va loyiha hajmi o'rtasidagi har qanday potentsial bog'lanishni statistik tekshirish uchun Ikkilik Logistik Regressiya (BLR) usulidan foydalanishgan. BLR - bu qaram o'zgaruvchi (loyihaga egalik) va mustaqil o'zgaruvchilar to'plami (investitsiyalar hajmi va shartnoma muddati) o'rtasidagi bog'liqlik turi va ahamiyatini o'rganish uchun foydali yondashuvni amalga oshirishgan. Norvegiyadagi DXSh loyihalari ro'yxatidan foydalangan holda, natijalar loyihaga egalik qilish shartnoma muddati bilan bog'liq emasligini ko'rsatgan. Biroq, investitsiyalar hajmining o'sishi xususiy

mulkchilik ehtimolini oshiradi, davlat mulki bo'lgan katta kapital xarajatlarga ega bo'lgan yo'l qurilishi loyihalari bundan mustasno ekanligini tadqiq qilishgan[8].

Jorge Ferreira dos Santos Filho va boshqalar (2024) “Loyihaviy moliyalashtirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va davlat-xususiy sheriklikdan foydalangan holda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning tizimli tahlili” nomli ilmiy maqolasida infratuzilmani rivojlantirishda loyihalarni moliyalashtirish (PF), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) va davlat-xususiy sheriklik (PPP) o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishgan. 55 ta maqolani tahlil qilish orqali ular rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma loyihalari muvaffaqiyatida institutsional salohiyat, risklarni boshqarish va me'yoriy-huquqiy bazalarning rolini ta'kidlab o'tishgan. Tadqiqot xususiy kapital va samarali boshqaruvga asoslangan asosiy strategiya sifatida DXShga urg'u berishgan. Shu bilan birgalikda, hukumat siyosati va xavflarni kamaytirish kabi muammolar ham muhokama qilingan[9].

Lawrence Dwight (2025) “O'zbekiston va davlat-xususiy sheriklik: Mamlakat saboqlari, O'zbekiston Respublikasi” nomli tadqiqotida bir qancha masalalar to'g'risida to'xtalib o'tgan. Muallif davlat-xususiy sheriklik (DXH) davlat investitsiyalarini yaxshilash uchun xususiy sektor tajribasi, risklarni taqsimlash, boshqarish va moliyalashtirishdan foydalanadi, biroq, bu imtiyozlar ham xavflarni o'z ichiga olishini ta'kidlagan. Shuningdek, loyiha darajasidagi xavf-xatarlarga noto'g'ri tanlovi, optimizm tarafdori, byudjetdan tashqari moliyalashtirish va shartnomani qayta ko'rib chiqish kiradi. Xavflarni yangi loyihalar bo'yicha yillik cheklovni yoki DXSh aksiyalarini cheklashni amalga oshirish orqali hal qilish mumkin. DXSh monitoringining mustahkam tizimiga ega bo'lish amalga oshirishni yaxshilaydi va shartli majburiyatlardan yo'qotishlarni oldini oladi deb hisoblaydi[10].

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini o'rganishda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Avvalo, adabiyotlar sharhi bosqichida DXSh bo'yicha ilg'or xalqaro izlanishlar tizimli tahlil qilindi. Loso Judijanto va boshqalar (2025), L. Fu va H. Sun (2023), Mathew Azarian (2023) hamda Lawrence Dwight (2025) kabi olimlarning ishlariga tayangan holda bibliometrik, tizimli va empirik yondashuvlarning mohiyati o'rganildi. Ushbu bosqichda Scopus, Jahon banki va World Governance Indicators kabi manbalardan foydalanilib, DXSh sohasidagi asosiy tadqiqot yo'nalishlari hamda ilmiy bo'shliqlar aniqlab olindi.


Bundan tashqari, O'zbekiston tajribasi Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Turkiya misolida qiyosiy tahlil qilindi. Bu jarayonda huquqiy asoslar, risklarni taqsimlash, moliyalashtirish modeli va monitoring tizimlari kabi mezonlar hisobga olindi. Shuningdek, tadqiqotda SWOT tahlil yondashuvi qo'llanilib, DXSh sohasidagi kuchli va zaif tomonlar, mavjud imkoniyatlar va ehtimoliy tahdidlar baholandi. Shu tarzda, tadqiqot metodologiyasi miqdoriy (ekonometrik) va sifat (qiyosiy hamda SWOT) yondashuvlarni uyg'unlashtirgan holda kompleks tahliliy natijalarni shakllantirishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar

Yuqorida qayd etilgan maqolalar DXSh sohasidagi eng muhim ilmiy yo'nalishlarni (risklarning taqsimlanishi, moliyaviy strukturaviy yondoshuvlar, shartnoma va egulik masalalari, samaradorlik va monitoring) yoritilgan. Biroq, ularda O'zbekiston holatida joylashgan muammolar (masalan, huquqiy muvofiqlik, davlat byudjetiga bo'lgan ta'sir, madaniy-iqtisodiy shartlar) to'liq tahlil qilinmagan. Shuning uchun maqolada ushbu xalqaro

tadqiqotlardan kelib chiqib, O‘zbekiston uchun mo‘ljallangan ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqish uchun empirik tahlillarni amalga oshirildi.

DXSh mexanizmi O‘zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida infratuzilmani rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirishning muhim vositasiga aylanmoqda. Mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan DXSh loyihalari soni va ularning qiymati so‘nggi yillarda izchil ortib bormoqda, bu esa iqtisodiy o‘‘sish sur‘atlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. DXSh loyihalarining tarmoqlar kesimidagi taqsimoti, ularning umumiy qiymati, xorijiy investorlar ulushi va davlat kafolatlari darajasi iqtisodiyotning qaysi yo‘nalishlarida xususiy sektor faolligi yuqori ekanligini aniqlash imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. 2019–2024 yillar oralig‘ida amalga oshirilgan yirik DXSh loyihalari tarmoqlar kesimida¹

O‘zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida amalga oshirilayotgan davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarining holatiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, eng yirik ulush energetika tarmog‘iga to‘g‘ri keladi — bu tarmoqda 12 ta loyiha amalga oshirilgan bo‘lib, ularning umumiy qiymati 6,5 mlrd AQSh dollarini tashkil etadi. Bu holat mamlakatda energiya ta‘minotini modernizatsiya qilish va qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish siyosati bilan izohlanadi.

Transport tarmog‘i esa o‘z navbatida, 5 ta loyiha va 2,1 mlrd AQSh dollar bilan ikkinchi o‘rinni egallagan. Bu yo‘nalishdagi DXSh tashabbuslari asosan logistika infratuzilmasini, avtomobil yo‘llari va temir yo‘l tizimlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan. Shu bilan birga, kommunal xizmatlar (6 loyiha, 1,2 mlrd. AQSh dollar) sohasida ham xususiy sektor ishtiroki kuchayib borayotganini ko‘rish mumkin. Sog‘liqni saqlash va ta‘limda ham DXSh loyihalari bosqichma-bosqich kengaymoqda. 2020-yildan keyin loyihalar hajmi barqaror o‘‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

¹ Ma‘lumotlar Jahon banki PPP database (2023) va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi (2022) hisobotlariga asoslangan holda tuzilgan

DXSh mexanizmining muvaffaqiyati asosan huquqiy asoslarning barqarorligi, risklarni to‘g‘ri taqsimlash, shaffof moliyalashtirish modeli va mustaqil monitoring tizimining mavjudligiga bog‘liq. Shu sababli, O‘zbekiston tajribasini Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Turkiya kabi ilg‘or davlatlar bilan solishtirish, bu sohadagi islohotlarni yanada takomillashtirish uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Quyidagi tahlil aynan shu maqsadda, O‘zbekiston DXSh tizimini xalqaro amaliyot bilan taqqoslab, mavjud ustunliklar va takomillashtirish zarur bo‘lgan jihatlarni aniqlashga qaratilgan (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston va ilg‘or iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar bilan qiyosiy tahlili²


| <i>Mezon</i> | O‘zbekiston | Buyuk Britaniya | Janubiy Koreya | Turkiya |
|---------------------------------------|-----------------------|---------------------------------|-----------------------|------------------|
| <i>Huquqiy asoslar</i> | 2019-yil Qonun | 1992-yildan PFI | 1999-yildan DXSh | 2006-yildan DXSh |
| <i>Loyihalar soni (so‘nggi 5 yil)</i> | 30+ | 100+ | 80+ | 60+ |
| <i>Risklarni taqsimlash</i> | Davlat ustuvor | Xususiy ko‘proq | Balansli | Balansli |
| <i>Moliyalashtirish modeli</i> | Davlat kafolati katta | To‘liq xususiy moliyalashtirish | Aralash | Aralash |
| <i>Monitoring mexanizmi</i> | Endi shakllanmoqda | Mustaqil agentlik | Mustaqil komissiya | Maxsus agentlik |

Tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonning DXSh sohasidagi huquqiy asosi 2019-yilda qabul qilingan qonun bilan shakllangan bo‘lib, bu yo‘nalish hali nisbatan yangi bosqichda ekanini ko‘rsatadi. Aksincha, Buyuk Britaniyada 1992-yildan boshlab “Private Finance Initiative (PFI)” dasturi orqali, Janubiy Koreyada 1999-yildan, Turkiyada esa 2006-yildan buyon DXSh amaliyoti barqaror tarzda amalga oshib kelmoqda. Bu esa xorijiy tajribalarda tizimning uzoq muddatli evolyutsiyasi va qonunchilikning yetarlicha mustahkamligini anglatadi.

So‘nggi besh yilda amalga oshirilgan DXSh loyihalari soni bo‘yicha O‘zbekiston 30 dan ortiq tashabbus bilan faoliyat yuritmoqda. Bu ko‘rsatkich Buyuk Britaniyada 100 dan ortiq, Janubiy Koreyada 80 dan ziyod, Turkiyada esa 60 atrofida loyiha bilan taqqoslaganda hali past, biroq o‘shirish dinamikasi yuqori. O‘zbekiston uchun asosiy cheklovlar risklarni taqsimlashda davlatning ustuvor roli va moliyalashtirishda davlat kafolatlarining katta ulushi bilan bog‘liqdir. Bu xususiy sektorni to‘liq jalb etishda muayyan to‘siq bo‘lib turadi.

Shu bilan birga, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreya tajribasida risklarni xususiy sektor zimmasiga yuklash va to‘liq “Private finance” modelini qo‘llash investor ishonchini mustahkamlagan. Turkiyada esa balansli yondashuv qo‘llanilib, davlat va xususiy sherik o‘rtasida risklar muvozanatli taqsimlangan. O‘zbekistonda esa monitoring mexanizmi endigina shakllanayotgan bir paytda, xorijiy mamlakatlarda mustaqil agentlik va komissiyalar orqali loyihalar ijrosi doimiy nazorat ostida olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida energetika, transport va sog‘liqni saqlash kabi asosiy tarmoqlarda DXShni kengaytirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu esa mamlakat uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochadi, biroq global iqtisodiy xavflar, siyosiy barqarorlik omillari va investorlarning ishonch darajasi bilan bog‘liq muammolarni ham yuzaga keltiradi.



2-rasm. O‘zbekistondagi DXSh mexanizmning SWOT tahlili³

DXSh loyihalari davlat byudjeti yukini kamaytiradi, xususiy kapital va ilg‘or texnologiyalarni iqtisodiyotga jalb etish imkonini kengaytiradi. Bu orqali infratuzilma loyihalari tezroq amalga oshirish orqali, xizmatlar sifati oshadi hamda yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Energetika sohasidagi DXSh loyihalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ular mamlakatning energiya mustaqilligini oshiradi, transport infratuzilmasidagi sheriklik esa logistika samaradorligini oshirishini ko‘rishingiz mumkin bo‘ladi. Shuningdek, O‘zbekistonning investitsion jozibadorligi oshib borishi natijasida, xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqalar) mamlakatdagi DXSh loyihalarini qo‘llab-quvvatlamogda. Bu holat iqtisodiy islohotlarning izchil olib borilayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, investorlar uchun huquqiy kafolatlar va shaffoflik mexanizmlari yanada kengaytirish va mustahkamlanishi lozim.

Hozirda monitoring tizimining sustligi, risklarni baholash va taqsimlashdagi noaniqliklar DXSh loyihalarining to‘liq samaradorligiga to‘sqinlik qilmoqda. Bu muammolarni hal etish uchun xalqaro tajribaga asoslangan baholash tizimlarini joriy etish, DXSh agentliklarining vakolatlarini kengaytirish hamda xususiy sektor ishtirokchilariga soliq imtiyozlari berish maqsadga muvofiqdir. “Yashil energetika”, “aqlii shaharlar” va “raqamli sog‘liqni saqlash” yo‘nalishlarida DXSh mexanizmini rivojlantirish katta iqtisodiy salohiyatga

egadir. Bu sohalarda xususiy sektor ishtiroki texnologik innovatsiyalarni tezlashtirib, uzoq muddatda davlat xarajatlarini kamaytiradi hamda raqobatbardosh iqtisodiyot yaratishga asos bo‘ladi.

Global iqtisodiy o‘zgarishlar, siyosiy barqarorlikdagi ehtimoliy tebranishlar va investorlarga nisbatan xavf darajasining yuqoriligi — DXSh loyihalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, moliyaviy kafolatlar, siyosiy risk sug‘urtasi va shaffof axborot almashinuvi tizimlarini kuchaytirish zarur.

Xulosa

Tahlil natijalari O‘zbekistonda DXSh mexanizmi iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va davlat-xususiy sektor hamkorligini kuchaytirishda muhim vosita ekanini ko‘rsatadi. 2019-yildagi “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun va Prezident qarorlari asosida yaratilgan huquqiy baza sohani rivojlantirish uchun muhim poydevor bo‘ldi. Shu bilan birga, amaliyotda monitoring tizimining sustligi, risklarni baholashdagi noaniqlik va davlat kafolatlariga ortiqcha tayanish kabi muammolar mavjud.

Qiyosiy tahlil natijalariga ko‘ra, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreya tajribasida risklarni xususiy sektor zimmasiga yuklash, mustaqil nazorat institutlari orqali shaffoflikni ta‘minlash DXShning barqarorligini ta‘minlagan. O‘zbekistonda esa ushbu yondashuvlarni bosqichma-bosqich milliy amaliyotga tatbiq etish zarur.

Kelgusida “yashil energetika”, “raqamli sog‘liqni saqlash” va “aqlli shaharlar” yo‘nalishlarida DXShni kengaytirish, xususiy kapitalni jalb etish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish iqtisodiyotning barqaror o‘shishiga xizmat qiladi. Shu bois, davlat-xususiy sheriklik tizimida huquqiy barqarorlikni ta‘minlash, shaffoflikni oshirish va xususiy sektor ishtirokini rag‘batlantirish O‘zbekiston iqtisodiy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida” (2019-yil 10-may, O‘RQ-537-son).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat-xususiy sheriklik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (2020-yil 6-aprel, PQ-4660-son).
3. OECD (2018). *Public-Private Partnerships: Lessons from the United Kingdom’s PFI Model*. Paris: OECD Publishing.
4. World Bank (2020). *PPP Knowledge Lab: Global Report on Public-Private Partnerships*. Washington, D.C.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni (2023-yil 11-sentabr, PF-150-son).
6. Judijanto, Loso & Mas‘ut, Mas‘ut & Andiani, Paramita. (2025). Public-Private Partnerships (PPPs) in Infrastructure Development: A Bibliometric Review. *West Science Social and Humanities Studies*. 3. 530-542. 10.58812/wsshs.v3i04.1851 .
7. Fu, L., Sun, H., Fang, Y., & Xu, K. (2023). A systematic review of the public-private partnership literature published between 2012 and 2021. *Journal of Civil Engineering and Management*, 29(3), 238–252. <https://doi.org/10.3846/jcem.2023.17926>

8. Azarian, M., Shiferaw, A. T., Lædre, O., Wondimu, P. A., & Stevik, T. K. (2023). Project ownership in public-private partnership (PPP) projects of Norway. *Procedia Computer Science*, 219, 1838-1846.

9. Filho, J. F. dos S., Ogasavara, M. H., & Amatucci, M. (2024). A systematic review of developed and developing countries using project finance, foreign direct investment, and public-private partnerships. *Macroeconomics and Finance in Emerging Market Economies*, 1–20. <https://doi.org/10.1080/17520843.2024.2414544>

10. Lawrence Dwight. "Uzbekistan and Public-Private Partnerships: Country Lessons, Republic of Uzbekistan", *Selected Issues Papers 2025*, 087 (2025), accessed October 11, 2025, <https://doi.org/10.5089/9798229015455.018>